



№ 1/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi



ADPI Ilmiy xabarnomasi

№ 1 2026 fevral

Jurnal 2023-yildan chop etilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
2022-yil 25-oktyabrda
№ 045013 raqam bilan ro'yxatga olingan
ISSN 2181-4309

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi huzuridagi
Oliy attestatsiya komissiyasi
Rayosatining 2024-yil 8-maydagi
№354-sonli qarori bilan
Pedagogika fanlari bo'yicha Oliy attestatsiya
komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy
natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar
ro'yxatiga kiritilgan.

Tahririyat manzili: 170100 Andijon shahri,
"Do'stlik" ko'chasi, 4uy, 216-xona.
Electron manzil: info@adpi.uz
Telegram: ADPI_Ilmiy_xabarnomasi
Telefon raqamlari: +998 91 484 40 90

1/1

BOSH MUHARRIR:
B.M. Rasulov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
Mas'ul muharrir:
B.A. Sirojiddinov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor

TAHRIR KENGASHI

S.Z. Zaynobiddinov- O'zRFA akademigi
I.R. Asqarov- kimyo fanlari doktori, professor
Sh.X. Yo'lchiyev- fizika-matematika fanlari doktori, (DSc), professor
A.E. Zaynabiddinov- biologiya fanlari doktori, professor
B.X. Amanov- biologiya fanlari doktori (DSc), professor
A.A. Egamberdiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), professor
M.V. Xalimova- psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Sh.J. Yusupova - pedagogika fanlari doktori, professor
Z.E. Azimova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.B. Artiqova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
V.A. Qodirov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
N.J. Abdullayeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.A. Tojiboyeva – filologiya fanlari doktori, professor
Sh.A. Xaitov- tarix fanlari doktori (DSc), professor
A.G. G'aniyev- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
M.K. Pozilov -biologiya fanlari doktori (DSc). professor
T.T. Kaziyeva- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
U.A. Usmanova- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
D.T. Samatov- pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
A.Xakimov- pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
M.T.Parpiyev- falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent
A.A. Zaparov- texnika fanlari nomzodi, professor
U.A. Saliyev- tarix fanlari nomzodi, professor
M.I. Israil- filologiya fanlari doktori, professor
L.A. Muxammadjonova- falsafa fanlari nomzodi, professor
Sh.A. Xasanov - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
X.T. Komilova pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
M.Sh. Alimova - siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Q. Ibaybullayev- falsafa fanlari nomzodi, dotsent
D.T. Samatov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
O'M. Muxtarov- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
S.N. Yusupova- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
B.M. Do'monov- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.A. Tajimirzayev- tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
K.S. Karimov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
A.A. Yuldashyev- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.J. Abduraxmonova - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.M. Muydinova- fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
J.B. Qoraboyev- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
N.T. Mo'yidinov- kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
D.A. Sobirova- filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
E.B. Abdullayev- falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'.Sh. G'ulomov- biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
L.S. Yunusov - biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
U.Sh. Uktamov - geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
M.G'. Ergasheva - tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
N.S. Yaqubov- tarix fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)
M.I. O'rinboev- pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muharrirlar:
O.Karimov,
U.Malikova,
B. Mashrabova.

MUNDARIJA

PEDAGOGIKA

Hasanov Sh.A. Adabiyot fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari talqini	4
Qoraboyev J.B. "Giperbola konseptual semantikasi"ni voqelantiruvchi til birliklarining lingvokognitiv, psixolingvistik, sotsiolingvistik va lingvostilistik tavsifi	8
Umurzaqova N.S. Bo'lajak farmaseftlarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	13
Камалходжаева С.С. Язык как объект лингвистического исследования	16
Абдуллаева А.Э. Современные и передовые педагогические технологии в преподавании иностранных языков	19
Karimov O.T., Mirzayev O.X. Talabalarni iqtidorli o'quvchilar bilan "lumiyera" metodi asosida ishlashga tayyorlashning didaktik imkoniyatlari	23
Jo'rayeva M.A. Kasbiy tayyorgarlikni integrativ yondashuv asosida shakllantirish	29
Ikromov M.X., Abduraimova M.A. Talabalarga muhandislik kompyuter grafikasidan foydalanib o'qitishning mazmuni	33
Ikromov M.X., G'ulomova M.N. Rangtasvir darslarida axborot-kommunikatsiya va vizual texnologiyalardan foydalanish	37
Mamatisaqova G.A. Farmasevtika ishi yo'nalishida kompetensiyaga asoslangan ta'limni rivojlantirishda xorij tajribasi	41
Mamadaliyev B.K. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilar uchun kreativ fikrlashni rivojlantiruvchi amaliy mashg'ulotlar tizimini ishlab chiqish	45
Axmedova D.X. Boshlang'ich ta'limda ijodiy yozuv ko'nikmalarini shakllantirishning yangi metodlari	48
Kosimova G.M. Yangi pedagogik texnologiyalar vositasida darsliklar bilan ishlash bo'yicha o'quv jarayonini loyihalash	53
Xoldarova M.Q., Tairova M.B. Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarida nutq o'stirish darslari orqali "soft skills" ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi	57
Abdurahmonova H.V. Saniye Benjik Kanganing o'yin pedagogikasi va rivojlantiruvchi muhit haqidagi qarashlari	61
Xurshidbekov A.M. Erkin kurashchilarda tezlik sifatining shakllanishi va rivojlanishining uslubiy asoslari	67
Olimjonov O.O. Integratsiyalashgan tarbiya: talabalarda jismoniy salohiyat va ma'naviy immunitetni shakllantirish usullari	71
Usarov M.M. Talabalar estetik kompetensiyalarini rivojlantirishda milliy xalq o'yinlaridan foydalanining dolzarbligi	75
Karimova F.Z. Integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy -metodologik asoslari	80
Xakimov Sh.T. Yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni o'rgatish bosqichlari	83
O'rinboyev L.X. Farmakodinamikaning fan sifatida farmakologiyada tutgan o'rni	89
Sobirjonov I.T. Farmakokopetentlik tushunchasi va uning asosiy komponentlari	95
No'monova G.D. Klinik farmakologiya fani o'qitish tizimining amalyotdagi holatini kredit-modul tizimi asosida tashkil etish	100
Xodjayev M.K. Oliy ta'lim muassasalarida futbol murabbiylarini tayyorlashning pedagogik aspektlari	105
Kodirov M.A., Otashev D.R. Basketbolda sportchilarni jaroxatlanishni oldini olish va tiklash usullari	110
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilarining maxsus jismoniy tayyorgarligini darsdan tashqari mashg'ulotlar asosida rivojlantirishning pedagogik modeli	114
Samatov D.T., Abdullaev G'A. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishda darsdan tashqari mashg'ulotlarni innovatsion yondashuv asosida tashkil etish metodikasi	118
Mullajonov Sh.I. Sport turlarining tavsifi va sportchi faoliyatida ruhiy tayyorgarlikning roli	124
Otashev D.R., Otasheva O.H. O'smirlarnigh psixologik munosabatlari shakllantirishda jismoniy tarbiyani o'rni	129

rivojlanishini ta'minlashga yordam beradi. Shu bois, milliy xalq o'yinlarini pedagogik amaliyotda tizimli va maqsadli qo'llash zamonaviy oliy ta'limning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayeva M. Milliy xalq o'yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. — Toshkent, 2019. 91-b.
2. Shodmonova D. Oliy ta'limda estetik kompetensiyalarni shakllantirish masalalari. — Toshkent, 2020. 74-b.
3. Nurmatova N. Milliy o'yinlarning talaba shaxsini rivojlantirishdagi o'rni. — Toshkent, 2021.
4. Olimov R., Tursunova D. Pedagogik jarayonda milliy o'yinlardan foydalanish metodikasi. Pedagogika va psixologiya jurnali, 2021. 3(4), 55–66.
5. Kuznetsova T. (2021). Traditional games and students' social and cultural competence. Pedagogical Innovations, 18 (2), 88–99.
6. Peterson, M. (2017). The role of cultural heritage in developing aesthetic skills. Journal of Arts Education, 9(1), 33–47.

UO'K 378.147:371.13:37.013

INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA BOLAJAK TARBIYACHILARNI TARBIYAVIY FAOLIYATGA TAYYORLASHNING NAZARIY -METODOLOGIK ASOSLARI

<https://zenodo.org/records/18754695>

Karimova Feruzaxon Zakirovna
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotasiya. *Mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari tahlil etilgan. Unda integratsiya tushunchasining pedagogik mazmuni, uning bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni ochib berilgan. Shuningdek, tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etishda fanlararo integratsiya, nazariy va amaliy tayyorgarlikning uyg'unligi hamda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning ahamiyati asoslab berilgan. Maqolada bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda integrativ yondashuvning didaktik imkoniyatlari va pedagogik shart-sharoitlari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *integrativ yondashuv, bolajak tarbiyachi, tarbiyaviy faoliyat, kasbiy tayyorgarlik, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, pedagogik integratsiya, kasbiy rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье проанализированы теоретические основы подготовки будущих воспитателей к воспитательной деятельности на основе интегративного подхода. В ней раскрывается педагогическое содержание понятия интеграции, ее роль в формировании профессиональных компетенций будущих воспитателей. В данной статье проанализированы теоретические основы подготовки будущих воспитателей к воспитательной деятельности на основе интегративного подхода. В ней раскрывается педагогическое содержание понятия интеграции, ее роль в формировании профессиональных компетенций будущих воспитателей. Обосновано также значение междисциплинарной интеграции, сочетания теоретической и практической подготовки, личностно-ориентированного подхода в эффективной организации воспитательной деятельности. В статье освещаются дидактические возможности и педагогические предпосылки интегративного подхода к развитию профессиональной подготовки будущих педагогов.*

Ключевые слова: *интегративный подход, воспитатель детей, воспитательная деятельность, профессиональная подготовка, личностно-ориентированное обучение, педагогическая интеграция, профессиональное развитие.*

Abstract. *This article analyzes the theoretical foundations of preparing future educators for educational activities on the basis of an integrative approach. It reveals the pedagogical content of the concept of integration, its role in the formation of professional competencies of future educators. This article analyzes the theoretical foundations of preparing future educators for educational activities on the basis of an integrative approach. It reveals the pedagogical content of the concept of integration, its role in the formation of professional competencies of future educators. Also, the importance of interdisciplinary integration, the combination of theoretical and practical training and an individual-*

oriented approach is based on the effective organization of educational activities. The article covers the didactic possibilities and pedagogical conditions of an integrative approach in the development of professional training of future educators.

Keywords: *integrative approach, childcare educator, educational activity, professional training, personality-oriented education, pedagogical integration, professional development.*

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida pedagog kadrlarning kasbiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablar tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tizimi uchun malakali, ijodkor va tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil eta oladigan tarbiyachilarni tayyorlash dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va integrativ yondashuvdan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Integrativ yondashuv bo'lajak tarbiyachilarning nazariy bilimlari, amaliy ko'nikmalari va shaxsiy sifatlarini yaxlit holda shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois mazkur maqolada integrativ yondashuv asosida bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslarini tahlil qilish maqsad qilib olindi. Integrativ yondashuv – bu ta'lim jarayonida turli fanlar, bilimlar, ko'nikmalar va malakalarni o'zaro bog'liq holda, yagona tizim sifatida o'rganishga asoslangan pedagogik yondashuvdir [1]. Ushbu yondashuv talabalarda dunyoni yaxlit idrok etish, muammolarga kompleks yondashish va kasbiy faoliyatda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bo'lajak tarbiyachilarni tayyorlash jarayonida integrativ yondashuv pedagogika, psixologiya, metodika, axloqshunoslik va ijtimoiy fanlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlaydi. Natijada talabalarda tarbiyaviy faoliyatni samarali tashkil etish uchun zarur bo'lgan bilim va kompetensiyalar shakllanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimi so'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilib, bu sohada zamonaviy, kreativ fikrlovchi vayuqori malakali tarbiyachilarni tayyorlash masalasi davlat siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "2020–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasinitasdiqlash to'g'risida"gi PQ–4312-son qarori, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun (yangi tahrir, 2020-yil), hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 19-fevraldagi 87-sonqarorida maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, ta'lim mazmunini yangilash va kasbiykompetentpedagog kadrlar tayyorlash vazifalari belgilab berilgan. Mazkur rasmiy hujjatlar asosida ta'lim mazmunining integratsiyalashuvi, tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini zamonaviy metodlar asosida shakllantirish, fanlararo yondashuvni amaliyotgajoriy etish kabi dolzarb masalalarning hal etilishi ko'zda tutilgan. Xususan, maktabgachata'limdasturlarini ishlab chiqishda va tarbiyachilarni tayyorlashda integrativ yondashuvga asoslangan, ijodiy va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi pedagogik metodikalarga ehtiyoj kuchaymoqda. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash masalasi pedagogika fanida muhim ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etiladi [2]. Mazkur yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish hamda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish masalalariga qaratilgan. Pedagogik integratsiya masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda integrativ yondashuv ta'lim mazmunini tizimlashtirish, nazariy bilimlar va amaliy faoliyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ta'minlash vositasi sifatida talqin etilgan. Ayrim olimlar integrativ yondashuvni shaxsning kasbiy rivojlanishini ta'minlovchi samarali mexanizm deb baholaydilar. Ularning fikricha, fanlararo integratsiya bo'lajak mutaxassisning

kasbiy faoliyatga tayyorgarligini oshiradi va pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida anglashga yordam beradi. Bo'lajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash masalalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda tarbiyachining kasbiy kompetensiyalari, axloqiy-psixologik tayyorgarligi hamda pedagogik muloqot madaniyatiga alohida e'tibor qaratilgan [3]. Tadqiqotlarda tarbiyaviy faoliyatning samaradorligi tarbiyachining nazariy bilimlari bilan bir qatorda uning shaxsiy fazilatlarini, kasbiy qadriyatlarini va refleksiv qobiliyatlariga ham bog'liq ekanligi asoslab berilgan.

Zamonaviy ilmiy manbalarda kompetensiyaviy yondashuv integrativ yondashuv bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Kompetensiyaviy yondashuv bo'lajak tarbiyachilarda amaliy faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni nazarda tutadi. Shu jihatdan integrativ yondashuv kompetensiyaviy ta'limni samarali amalga oshirishning muhim sharti sifatida e'tirof etiladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash masalasi yetarli darajada o'rganilgan bo'lsa-da, mazkur yondashuvni maktabgacha ta'lim yo'nalishida tizimli joriy etish, uning metodik asoslarini takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda. Mazkur tadqiqot integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda umumilmiy va maxsus pedagogik tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasining asosini tizimli yondashuv tashkil etadi [4]. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini o'zaro bog'liq komponentlardan iborat yaxlit tizim sifatida tahlil qilish imkonini beradi. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlar metodologik asos sifatida tanlandi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish;
- taqqoslash va umumlashtirish metodlari;
- pedagogik jarayonni modellashtirish;
- nazariy xulosalar chiqarish.

Mazkur metodlar orqali integrativ yondashuvning mazmuni, uning bo'lajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashdagi o'rni va ahamiyati aniqlab berildi. Tadqiqot natijalari asosida integrativ yondashuv bo'lajak tarbiyachilarning tarbiyaviy kompetensiyalarini shakllantirishda muhim pedagogik omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi [5]. Tadqiqot jarayonida olib borilgan nazariy tahlillar va metodologik asoslar integrativ yondashuvning bo'lajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashdagi samaradorligini asoslash imkonini berdi. O'rganilgan ilmiy manbalar va pedagogik yondashuvlar tahlili natijasida integrativ yondashuv tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim pedagogik omil ekanligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni bo'lajak tarbiyachilarda tarbiyaviy faoliyatga oid bilimlarning tizimli va izchil shakllanishiga xizmat qiladi. Xususan, pedagogika, psixologiya va metodik fanlar o'rtasidagi integratsiya talabalarning tarbiyaviy jarayon mohiyatini chuqur anglashiga, nazariy bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. tadqiqot natijalariga ko'ra, integrativ yondashuv bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, integratsiyalashgan ta'lim muhitida ta'lim olayotgan talabalarda pedagogik muloqot, tarbiyaviy jarayonni loyihalash, muammoli vaziyatlarni hal etish va refleksiv tahlil qilish kompetensiyalari samaraliroq shakllanadi [6]. Bu holat tarbiyachilarning kelgusidagi kasbiy faoliyatida tarbiyaviy ishlarni ongli va maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etishiga zamin yaratadi. Muhokama jarayonida mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan olib borilgan tahlillar qiyoslandi. Ayrim tadqiqotchilar tomonidan

ilgari surilgan xulosalar integrativ yondashuvning kasbiy tayyorgarlikdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, mazkur tadqiqot natijalari integrativ yondashuvni aynan tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash kontekstida ko'rib chiqish bilan ajralib turadi. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligida tarbiyaviy komponentni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari shuni ham ko'rsatdiki, integrativ yondashuvdan samarali foydalanish pedagogik jarayonni to'g'ri loyihalash, o'quv fanlari mazmunini uyg'unlashtirish hamda ta'lim jarayonida faol metodlardan foydalanishni talab etadi. Aks holda integratsiya yuzaki xarakter kasb etib, kutilgan natijalarga erishish qiyinlashadi. Umuman olganda, olingan natijalar integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlash nazariy jihatdan asoslangan va amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot xulosalari maktabgacha ta'lim muassasalari uchun tarbiyachi kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishda, ta'lim dasturlarini integratsiyalashgan holda ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Integrativ yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashning nazariy jihatlari tahlil qilindi. O'rganishlar shuni ko'rsatdiki, integrativ yondashuv ta'lim jarayonida nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar va shaxsiy sifatlarning o'zaro uyg'unligini ta'minlab, bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy tayyorgarligini samarali shakllantirishga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv pedagogika, psixologiya va metodik fanlar mazmunining uzviy bog'liqligini ta'minlash orqali talabalarda tarbiyaviy faoliyatning mohiyatini yaxlit holda anglash, tarbiyaviy jarayonni ongli rejalashtirish va amaliy faoliyatda qo'llash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Bu esa bo'lajak tarbiyachilarda kasbiy kompetensiyalarning shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari integrativ yondashuv bo'lajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda muhim pedagogik omil ekanligini, mazkur yondashuv ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish hamda maktabgacha ta'lim muassasalari uchun raqobatbardosh, malakali tarbiyachi kadrlarni tayyorlashga zamin yaratishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun. – Toshkent, 2020.
2. Abdullayeva M.J. Pedagogik kompetensiya va uni shakllantirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2019. 77-b.
3. Jo'raeva S. Maktabgacha ta'limda kognitiv rivojlanishva fanlar uyg'unligi.– T.: Ilm, 2019. 97-b.
4. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2018. 107-b.
5. Shodmonova Sh.S. Maktabgacha ta'lim pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2020.
6. Samandarova N. Integrativ yondashuv – ta'limning yangi bosqichi. –T.:Barkamol avlod, 2022. 81-b.

UO'K 373.5:796

YOSH BELBOG'LI KURASHCHILARGA TEXNIK USULLARNI O'RGATISH BOSQICHLARI

<https://zenodo.org/records/18754699>

Xakimov Shoyadbek Tolibovich

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. *Mazkur maqolada yosh belbog'li kurashchilarga texnik usullarni bosqichma-bosqich o'rgatish metodikasi ilmiy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, texnik usullarni o'rgatishning izchil besh bosqichli modeli dastlabki tayyorgarlik va texnik bazani shakllantirish, texnik usulning soddalashtirilgan ko'rinishini o'rgatish, juftlikda ishlash va muvozanatni boshqarish, qarshilik bilan mashq qilish hamda sun'iy musobaqa vaziyatida qo'llash sportchilar texnik, koordinatsion, jismoniy va texnik tayyorgarligining barqaror rivojlanishini ta'minladi. Har bir bosqich o'zining aniq pedagogik, biomexanik va psixologik asoslariga ega bo'lib, izchilikda qo'llanganda texnik aniqlik 40% dan*

